

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

UO`K: 1(091) (5): [910.4:339.9(4/5)]

BAHOUDDIN NAQSHBAND TA'LIMOTIGA OID MANBA
ИСТОЧНИК ПО УЧЕНИЮ БАХАУДДИНА НАКШБАНДА
SOURCE ON THE TEACHINGS OF BAHAUDDIN NAQSHBAND

Kuziyev Nodir Abdusalimovich

Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manba-shunosligi, falsafa"
kafedrası v.b. dotsenti f.f.f.d. (PhD)
ORCID ID: 0009-0001-5587-9759

Annotatsiya

Mazkur maqolada Bahouddin Naqshband ta'limotiga oid manbaning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni hamda tafsirlarining barcha insonlarni jamiyatda bir-biriga do'stu ittifoq bo'lishga chaqirgani va insonlarning yaxshi kishilar qatoridan o'rin olishiga yordam berish lozimligi ta'kidlangan.

Аннотация

В данной статье роль учения Бахауддина Накиббанда в духовном развитии человека и его интерпретации призывают всех людей к дружному союзу в обществе и подчеркивается необходимость помогать людям быть в числе хороших людей.

Abstract

In this article, the role of the teachings of Bahauddin Naqshband in the spiritual development of man and his interpretations call all people to a friendly union in society and emphasize the need to help people be among the good people.

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, mutasavvif, mutafakkir, insonparvarlik, bag'rikenglik, tariqat, zikr, sabr, matonat, bardoshlilik.*

Ключевые слова: *Суфизм, мистик, мыслитель, человечность, толерантность, порядок, память, терпение, выносливость, толерантность.*

Key words: *Sufism, mystic, thinker, humanity, tolerance, order, memory, patience, endurance, tolerance.*

KIRISH

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun yoshlarni ma'nau yetuk qilib tarbiyalash dolzarb masaladir. Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini yuksaltirishda tariximizdagi buyuk insonlar hayot yo'li va ma'naviy merosi bebaho xazinadir. Xoja Muhammad Porso (1345-1420) temuriylar davrida yashab ijod etgan yirik mutasavvifdir. Hazrat Bahouddin Naqshband vafotidan keyin u Buxorodagi naqshbandiylik jamoasining murshidi bo'lgan. Ali Safiyning "Rashahot ayn al-hayot" asarida Ulug'bek davrida Muhammad Porsoni Samarqandga chaqirib imtihon qilganlari va u o'zining ruhiy kamoloti bilan barcha kishilarni lol qoldirgani, Ulug'bekning o'zi ham unga tan berganligi qayd etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bahouddin Naqshbandni tavsif etgan asosiy manbalar "Manoqib", "Maqomot", shogirdlari Muhammad Porso va Ya'qubi Charxiy yozgan risolalardir. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ham nazmiy, ham nasriy asarlarida Bahouddin Naqshbandni go'zal ravishda tavsiflaganlar. Bahouddin Naqshbandga doir manbalarni to'plab, u kishiga berilgan tavsiflarni jamlab, sharhlab nashr etdik. Bahouddin Naqshbandning ruboiylari jamlangan, 1997-yilda nashr etilgan "Ruboiyoti Xoja Naqshband" asarida biz Shoh Naqshbandga berilgan yangicha tavsiflarni topib, ularni falsafiy tahlil etdik. Manbada Bahouddin Naqshbandning 137 ruboiysini Muhammad Sodiq Qusuriy jamlab, urdu tilida sharh etgan. Biz manbadagi tavsiflarni tushunish, anglash, sharhlash va tushuntirishda germenitik uslubdan foydalandik.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bahouddin Naqshband nomi bilan mashhur va ma'lum hamda ma'ruf bo'lgan Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (1318-1389) hayot va ta'limotiga oid "Manoqib", "Maqomot", "Tazkira" va "Risola"lar mavjud. Bularning ichida Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" asari juda katta ahamiyatga molikdir. Risolaning boshida uning mazmuni va muallifi ko'rsatilgan. U

shunday soʻzlar bilan boshlanadi: “Risolai qudsiya” az kalimai durarbori Xojai xojagon, yaʼni Hazrat Xoja Baho ul-Haqq va-d-Din Naqshbandki, xazrat xoja Muhammad Porso bo formudai janob hazrat Xoja Alouddin Attor navishtaand (professor G.N.Navroʻzova). Mazmuni: “Risolai qudsiya” xojalar xojasi Baho-ul Haqq va Din Naqshbandning dur yogʻib turuvchi soʻzlaridan boʻlib, Alouddin Attor faomoyishi bilan Muhammad Porso tomonidan yozilgan. Bu manbaning Tehronda “Qudsiya” (“Kamoloti Bahouddin Naqshband) nomi bilan nashr etilishi uning asl mazmunini ochib beradi. Muhammad Porso juda boy meros qoldirgan mutafakkir hisoblanadi. Bahouddin Naqshband Muhammad Porsoga yuksak baho bergan. Xojaning Porsoga qarata aytgan quyidagi soʻzlari manbalarda bor: “Nimaiki bizda bor edi, hammasini toʻla olding”. Bahouddin Naqshband Muhammad Porsoga aytganlar: “Xojagon tariqatida har bir haq va amonateki, bizga yetgan boʻlsa va bu yoʻlda nimagaki erishgan boʻlsak, oʻsha omonatni senga topshirdim.

Darhaqiqat, Bahouddin Naqshband Buxoroyi sharifda mavjud boʻlgan Xojagon tariqatida edi. U 1370 yil ustoz Hazrat Amir Kulol vafotidan keyin yangi Naqshbandiya tariqati va taʼlimotiga asos soldi.

Muhammad Porso “Risolai qudsiya” asarni yozishdan maqsadini shunday bayon etadi: “Sodiq toliblar va haqiqiy doʻstlar va kalimalarni eshitishdan foyda olsinlar va ular Bahouddin Naqshband suhbatlari sharafiga erishib soʻzlarini tinglayotganday boʻlsinlar”. Risola boshida Allohga hamd, Muhammad paygʻambarning oila va ashoblariga salavotlar aytilgan. Keyin Bahouddin Naqshbandni Haq yoʻlini koʻrsatuvchilarning oliysi, haqiqat va maʼrifat ahli, oriflarning peshvosi, haqiqatga yetgan kishi, anbiyoi mursalinlarning vorisi, shayx, Sayid, rabboniy lutflarni zuhur etish mahalli, subhoniy axloqning koʻrinishi deb tavsiflangan va taʼkidlangan:

Gasht be kibru, riyoyu, kina,

Nuri qudsiro ruhash oina.

V-on liqoi oʻ javobi har savol,

Mushkil az vay hal shavad be qilu qol. (39 bet).

Mazmuni:

Kibru, riyo, kinasiz boʻldi,

Yuzi pok nurning oinasiga aylandi.

Uning bu koʻrinishi har savolga javob,

Mushkul undan hal boʻlar hech soʻzsiz.

Bahouddin Naqshbandga berilgan tavsiflardan keyin “Zikri ahvol, maqomot, karomoti sharifa va osori ajiba” degan nom bilan asosiy qism boshlanadi. Unda bu toifa, yaʼni haqiqat darajasida yuksalgan maʼrifatli oriflarning soʻzlari hol darajasida, varosat olamidani, zavq va ishorat bilan aytilgan boʻlib, ilohiy kalomning tajalliysi ekanligi taʼkidlanadi (33-bet). “Risola”dan maʼlum boʻladiki, Bahouddin Naqshband taʼlimotining asosida Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoni gʻoyalari turgan. Bahouddin uvaysiy boʻlib, u kishining ruhlardan taʼlim olgan. Abdulxoliq Gʻijduvoni shunday degan: “Qadamni azimatda urgin, ruxsatlardan uzoqda boʻl, sunnatga tobeʼlik qil, bidʼatlardan uzoqda boʻl”. Shu bilan birga sulukning boshi, oʻrtasi va oxiriga zarur boʻlgan oʻgʻitlarni berganlar. Bahouddin Naqshband ularga toʻla amal qilib, shu buyuk darajaga yetganliklarini aytadilar.

Naqshbandiya taʼlimotining tahlili koʻrsatadiki, ularda qalb ikki maʼnoda tushuniladi: birinchisi – tanada joylashgan bir parcha goʻsht parchasi, yaʼni yurak boʻlsa, ikkinchisi – rabboniy ruh deb ataladigan latoif qalbidir. Qalb latif ilohiy ruh boʻlib, olam haqiqatini idrok etishi, aqllar hayratda qoladigan narsalarni bila olishi, jism bilolmaydigan narsalar va sifatlarni anglashi kabi imkoniyati cheksiz darajada boʻlgan borliqning bir koʻrinishidir. Qalb rabboniy ruh maʼnosida asl haqiqatini biluvchidir. Naqshbandiya taʼlimotida rabboniy ruh deb ataluvchi latif qalb bilan jismoniy goʻshtpora koʻrinishdagi yurak orasida maxsus bogʻlanish borligi taʼkidlangan. Mana shu qalb qanchalik pok undagi halollik va saxiylik shu qadar shakllanib insonni yuzini yorugʻqilib boradi. Bu esa insonlarda bagʻrikenglikni, taqvodorlikni rivojlantirib boradi.

Yurak jismni harakatga keltiruvchi boʻlgan qon tomirlariga jon bersa, qalbgga olti narsa xosligini Bahouddin Naqshband quyidagicha taʼkidlaydi: hayot va oʻlim, sogʻlik va kasallik, uyqu va uyqusizlik. Bularning mazmuni quyidagicha izohlanadi: qalbning hayotligi - uni hidoyat qiluvchi ekanligida boʻlsa, qalbning oʻlimi yoʻldan adashib, zalolatga botishidir; qalbning sogʻligi uning pokligi, kasalligi aloqalar, bogʻlanishlar bilan oʻralashib qolishida; uyqu holati - qalbning gʻaflatda qolishi, uning bedorligi - hushyorligidir. Naqshbandiyada qalbning daqiq, nozik, latifligi taʼkidlanib,

ILMIY AXBOROT

uni gunoh, yomon narsalardan asrash lozimligi uqtiladi. Arzimas gunoh ham yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligi aytiladi.

Yurak va qalbning o'zaro uzviy bog'liqligi Naqshbandiyaning "Dil ba Yoru dast ba kor," – "Qalb Oллоh bilan, qo'l ishda" shiorida o'z aksini topgan. Inson faol bo'lishi, ya'ni qo'li ishda, xalq, yurt, el, vatan manfaati yo'lida xolis xizmat qilishi, jismonan kuchli bo'lishi, tananing barcha qismlari uyg'un harakat qilishi uchun yurak sog'lom bo'lishi lozim. Qalb-ma'naviy markazda kibr, hasad, g'azab, nafrat bo'lsa go'shtpora yurak ham qisiladi, qon harakatidagi uyg'unlik buziladi. Bular jismda turli xil kasalliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun yurak qalbgga, qalb yurak holatiga bog'langandir.

Zero, qalb Oллоh nazar qiladigan makon bo'lib, ilohiy nurlarni qabul etishi va kamol topishi kerak. Tama esa qalbni qora bulutdek qoplaydi va unga hikmat nurlarini o'tkazmaydi. Shuning uchun ham inson o'z qalbining har bir niyatini, harakatini nazorat etishi, xatolarga tavba bilan, yaxshiliklarga shukr bilan amal qilishi lozim. Bu nazorat turini Bahouddin Naqshband muhosaba deb ataydi. Muhosaba amalini tasavvufda ilk so'fiylardan bo'lgan Muhosibiy kiritgan. Bahouddin Naqshband g'oyalarini Xoja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Maxdumi A'zam va boshqalar davom ettirgan. Insonning ajoyib jismi bir maxfiy sir xazinasini o'laroq o'zida ana shu ganj tilsimini saqlaydi. Chunki Tangri o'z sirining xazinasini ochmoqchi bo'lganida uni na samo, na yer qabul qilmadi. Inson shuning uchun barcha narsalardan mumtoz qilib yaratilgan. Inson Yerda Xudoning o'rinbosari – xalifasi bo'lishi baxtiga sarafroz bo'lgan. Inson Tangri Jamolu Jalolini bilishi, o'ziga xos, mumtoz va Tangrining yerdagi xalifasi bo'lishi baxti qalbi – ko'ngli tufaylidir.

XULOSA

Manbada Bahouddinning irodatsil silsilasi beriladi. Silsilayi sharifdagi mashoyixlarning ko'plari uvaysiydardan ekanliklari uchun Bahouddin Naqshband uvaysiy tarikatidan edilar, deb ta'kidlanadi. Bu manbaning qimmatli tomoni yana shundaki (professor G.N.Navro'zova) uvaysiy degan so'zga izoh berib sharh etiladi: "Ularning zohir tomondan pirga muhtojliklari bo'lmaydi. Chunki ularni Hazrat risolat o'z inoyat hujralarida Uvaysni tarbiyalangandek o'zgalar vositasiz tarbiya beradilar. Bu maqom azim va oliydir". Demak, uvaysiylik nomi, bir tomondan, borib Uvays Qaraniyga taqalsa, ikkinchidan, pirsiz kamolotga yetish yo'lini ko'rsatadi. Bahouddin Naqshband ana shunday azim va oliy maqomga erishgan tariqat ahli ekanliklarini bu manba isbotlanmoqda.

Manbada ilohiy Jamol va Jalol sifati, tamkin, fano, baqo, avliyo va uning xosiyatlari yoritib berilgan. Muhammad Porsoning "Risolai qudsiya" asarini har tomonlama chuqur o'rganish Bahouddin Naqshbandiyaning tasavvufiy ta'limotini o'zlashtirishga va undan inson ruhiy kamolotini takomillashtirish yo'llarini o'rganishga imkon beradi.

Naqshbandiya o'zining uch asrlig tarixida ilk bor davlat va hukmdorlarga yuz tutib, ular bilan munosabat o'rnatdi, hamkorlik qilishga o'tdi. Tariqat va davlat o'rtasida o'rnatilgan bu yangi, ijobiy munosabat keng ma'noda bo'lib, uning barcha shakl va turlari jumladan bordi-keldi, muloqot, suhbat, kengash, maslahat, kelishish, hamkorlik va boshqa shunga o'xshash ma'nolarni bildiradi. Naqshbandiyaga doir manbalarda Xoja Ahror Valiy tufayli tariqat va davlat o'rtasida yuzaga kelgan munosabat keng ma'noli "ixtilot" tushunchasi bilan ifodalangan.

Bahouddin Naqshband ma'naviy-merosini o'rganish, ularni yoshlarga ibrat namunasi sifatida singdirish maqsadida faylasuf olimlar professorlar M.N.Boltayev, G.N.Navro'zova, R.T.Shodiyev, S.Karimov, O.T.Sharipova, X.Yu.Salomova, N.O.Safarova, B.B.Namozov, G.S.Yunusova, X.X.Raxmatova, F.Muzaffarov, dotsentlar E.Zoyirov, D.Qodirov, D.Sayfullayeva, F.Abdullayeva, F.Xodjayeva, R.Raupova, L.Xaitov, B.Dehqonov, D.Muxsimov, M.Gulamovalar o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband. (Manbalar tahlili). Toshkent. "Sanj standart" 2019-B 66.
2. Muhammad Porso. Risolai qudsiya. Buxoro, 1327/1909. Buxoro muzeyi, №12545,11-37 varaqlar.
3. Xoja Muhammad ibn Muhammad Porsoi Buxoroiy. Qudsiya (Kamoloti Bahouddin Naqshband. Bo muqaddima, tasbeh va ta'liq az Muhammad Toxiri Iroqiy). – Tehron, 1354. (Qarang: Muhammadxo'jayev A. Ideologiya nakshbandizma. Dushanbe. Donish, 1991.S.8).
4. Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriy. (1410) Anis at-tolibin va uddat as-solikin. Buxoro muzeyi 27772/11 qo'lyozma 168 v.
5. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband / Forsiydan tarjimon, so'z boshi, izoh va lug'at muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 335 b.

6. Risolahoii piron va payravoni tariqati Naqshbandiya. Dushanbe, 2017-456 b.
7. Ya'qub Charxiy. Risolai unsiya. (Do'stona suhbat). Tarjimon va sharhlar muallifi. S. Rahmonov. Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar universiteti" nashriyoti, 2022. 78 b.
8. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. Toshkent: Porseva, 1915 – 616 s.
9. Abdurahmon Jomiy. Tuhfatu-l-Ahror-Lakhnay: Nuvil Kishur, 1908-112 s.
10. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom. Toshkent: "Fan", 2001. 520 b.
11. Alisher Navoiy. Hayratul abror/Xamsa to'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6 jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011- 805 b.
12. Bahouddin Naqshband. (Manbalar tahlili). To'plab nashrga tayyorlovchi, maqola, izoh va sharhlar muallifi. G. N. Navro'zova. T.: "Sano standart" nashriyoti, 2019. 256 b.
13. Bahouddin Naqshband. Hikmatli so'zlar. Bahouddin Naqshband. Words of wisdom. Hikmatli so'zlarni to'plovchi va maqolalar muallifi. G. N. Navro'zova, Hikmatli so'zlarni ingliz tiliga tarjima etuvchi Z. Rasulov. "Sadridin Salim Buxoriy". "Durdona" nashriyoti. 2020. 52 b.
14. Bahouddin Naqshband. Ruboiylar. Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2023 – 84 b.